



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

**XOLID SAID -MOHIR TARJIMON
(“DEVONI LUG‘OTIT TURK” TARJIMASI XUSUSIDA)**

G‘ulomova Munisa Umidovna
O‘zbekiston Milliy universiteti, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada jadid adabiyotimiz namoyandasi Said Xolid Xo‘jayev tarjimalari bilan tanishtirib o‘tilgan. Jumladan, “Devoni Lug‘atit turk”ni turkiy tilga ilk tarjimasini Xolid Said tomonidan amalga oshirilgani haqida ma‘lumot berilgan va “Devoni Lug‘atit turk” tarjimasini xususida so‘z yuritilgan. Asarning tuzilmasi va tarjimon yondashuvi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar. Tarjima, muqaddima, arab tili, Abdulla Qodiriy, “O‘tgan kunlar”, nasriy, tahrir, “Devon”, turkiy til, lotin alifbosi, o‘zgartirishlar, badiiy ijod.

**ХОЛИД САИД — ИСКУСНЫЙ ПЕРЕВОДЧИК
(О ПЕРЕВОДЕ “ДИВАН ЛУГАТ АТ-ТУРК”)**

Гуломова Муниса Умидовна
Национальный университет Узбекистана, магистрант 2 курса

Аннотация

В данной статье представлены переводы Саида Холида Ходжаева представителя джадидской литературы. В частности, приводится информация о том, что первый перевод “Диван лугат ат-турк” на тюркский язык был осуществлён Халидом Саидом, а также рассматриваются особенности данного перевода. Освещаются структура произведения и подход переводчика.

Ключевые слова. Перевод, предисловие, арабский язык, Абдулла Кадыри, «Минувшие дни», проза, редакция, «Диван», тюркский язык, латинский алфавит, изменения, художественное творчество.

**KHALID SAID — A SKILLED TRANSLATOR
(ON THE TRANSLATION OF “DIWAN LUGHAT AT-TURK”)**

Gulomova Munisa Umidovna
National University of Uzbekistan, 2nd Year Master’s Student

Abstract

This article introduces the translations of Said Kholid Khojaye, a representative of our Jadid literature. In particular, it provides information that the first translation of “*Diwan Lughat at-Turk*” into a Turkic language was carried out by Kholid Said, and discusses the features of this translation. The structure of the work and the translator’s approach are also highlighted.

Keywords. Translation, preface, Arabic language, Abdulla Qodiriy, “*Bygone Days*”, prose, editing, “Diwan,” Turkic language, Latin alphabet, modifications, literary creativity.

Xolid Said Xo‘jayev asarlarining katta qismi bugungi kungacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, uning nihoyatda keng va serqirra ijodiy faoliyatga ega bo‘lganini inkor etib bo‘lmaydi. U ilmiy faoliyat bilan bir qatorda badiiy ijod hamda tarjima faoliyati bilan ham shug‘ullangan. Xolid Said Xo‘jayev tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar yana bir muhim vazifani ham bajargan. Xususan, u uzoq yillar davomida chor Rossiyasi va keyinchalik Sovet hokimiyati tomonidan ongli ravishda bir-biridan uzoqlashtirilgan turkiy tilli xalqlarning aslida umumiy til va madaniy ildizlarga ega ekanligini namoyon etishga xizmat qilgan. Biroq sovetlashuv davrida, ayniqsa XX asrning 1930-yillarida bunday faoliyat nihoyatda xavfli va siyosiy jihatdan nozik masala

hisoblangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Xolid Saidning faoliyati turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lib, u ma'lum ma'noda ularning madaniy birligini tiklash jarayoniga ham hissa qo'shgan. Aynan shu sababli ham u sovet mafkurasi tomonidan "zararli burjua millatchi g'oyalarini targ'ib qilish", millatchilik — turkchilik (panturkizm) g'oyalarini yoyishda ayblangan. Bu holat esa o'sha davr siyosiy muhitining o'ziga xos ko'rinishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tarjima jarayoni oddiy til bilish bilan cheklanmaydigan murakkab ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu sohada tarjimonning kasbiy mahorati nafaqat tanlangan asarning mazmunini anglashda, balki uni qanday uslubda va qanday metod asosida boshqa tilga ko'chirishida ham namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, Xolid Said Xo'jayev tarjima jarayonining murakkabligi haqida fikr bildirar ekan, "Devonu lug'otit turk" asarini tarjima qilish uchun faqat arab tilini yoki arab madaniyatini bilish yetarli emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, XI asrda qo'llangan turkiy so'zlarning o'sha davr arab tilidagi izohlarini zamonaviy turkiy til vositasida ifodalash tarjimon oldida qator murakkab vazifalarni yuzaga keltiradi.

Darhaqiqat, bunday holatda tarjimon nafaqat til tarixini chuqur o'rganishi, balki tilning semantik xususiyatlari va tarixiy ruhini ham anglab yetishi lozim. Aks holda, amalga oshirilgan tarjima mazmunijihatdan to'liq bo'lmasligi yoki ayrim nuqsonlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Afsuski, Xolid Said Xo'jayev tomonidan turkiy tilga moslashtirilgan tarjimalarning faqat kichik bir qismi bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Abdulla Qodiriy qalamiga mansub "O'tgan kunlar" romani (1928) hamda Rashot Nuri Guntekinning "Choliqushi" romani (1933) shular sirasiga kiradi.

Bundan tashqari, olimning qizi Behija Talishinskayaning xotiralarida qayd etilishicha, 1935-yilda Ag'axan Talishinski tomonidan tibbiyot sohasiga bag'ishlab yozilgan "Travmatologiya" nomli darslik ham Xolid Said Xo'jayev tomonidan rus tilidan ozarbayjon tiliga tarjima qilingan. 1935-yilda travmatologik jarrohlik masalalariga bag'ishlangan mazkur kitob nashr etilgan bo'lib, u ushbu yo'nalishda ozarbayjon turkchasida chop etilgan ilk ilmiy manbalardan biri hisoblangan. Biroq kitob muallif tomonidan rus tilida yozilgan bo'lib, uning ozarbayjon tilidagi tarjimasi Xolid Said tomonidan amalga oshirilgan. Shunga qaramay, bu haqda kitobning o'zida tarjimon nomi alohida ko'rsatilmagan.

Mazkur tarjimaning Xolid Said Xo'jayevga tegishli ekanligi mantiqan asosli ko'rinadi. Buning sababi shundaki, u nafaqat tajribali tarjimon bo'lgan, balki bir muddat Turkiyada tibbiyot yo'nalishida uch yil davomida ta'lim olgan. Biroq ushbu tarjima uning nomi bilan rasmiy manbalarda qayd etilmaganligi sababli, bu ma'lumot asosan xotiralar va og'zaki guvohliklar orqali bizgacha yetib kelgan. Qiziqarli jihati shundaki, Xolid Said Xo'jayev ozarbayjon tiliga moslashtirgan barcha asarlarini doimo "tarjima" sifatida taqdim etmagan. U turkiy xalqlar adabiyotiga mansub asarlarni ozarbayjon tiliga moslashtirar ekan, ularning muqovasi yoki izohlarida odatda "ozarbayjon tiliga moslashtirgan" kabi iboralardan foydalangan. Biroq rus yoki arab tilidan o'g'irilgan asarlar ustida esa "tarjimon" yoki "tarjima qilgan" kabi an'anaviy atamalarni qo'llagan.

Bizningcha, bunday yondashuv ma'lum darajada asosli hisoblanadi. Chunki turkiy tillar o'rtasidagi yaqinlik sababli ularni bir-biridan "to'liq tarjima qilish" masalasi nisbiy xarakterga ega. Masalan, Rashot Nuri Guntekinning "Choliqushi" romani turk tilida yozilgan bo'lsa-da, uni ma'lum darajada tarjimasiz ham tushunish mumkin. Ayniqsa, XX asrning 1920-yillaridagi ziyolilar va turkolog olimlar orasida turkiy tillar o'rtasidagi o'zaro tushunarlilik darajasi ancha yuqori bo'lgan.

Shu bois turkolog olimlar Birinchi Turkologiya Qurultoyi jarayonida ham yagona alifbo hamda umumturkiy adabiy til yaratish g'oyasini ilgari surgan edilar. Ularning maqsadi barcha turkiy xalqlar uchun tushunarli bo'lgan umumiy til va yozuv tizimini shakllantirishdan iborat edi. Biroq bu g'oya asosan orzu darajasida qolib ketdi, chunki Sovet imperiyasi bunday tashabbuslarning amalga oshishiga yo'l qo'ymadi. Shunga qaramay, o'sha davr turkiy

ziyolilarining aksariyati bir-birining tilini bemalol tushunibgina qolmay, hatto o‘sha tillarda ijod qilish qobiliyatiga ham ega edilar.

Xolid Said Xo‘jayevning yondashuvi ilmiy jihatdan asosli ko‘rinadi. U turkiy xalqlar o‘rtasidagi yaqinlikni faqat til qarindoshligida emas, balki ularning adabiy va madaniy aloqalarida ham ko‘rgan. Ana shu aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida u Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanini o‘zbek tilidan ozarbayjon tiliga moslashtirgan.

Xolid Said o‘z an‘anasiga sodiq qolgan holda, Rashot Nuri Guntekinning “Choliqushi” romanini ham Turkiya turkchasidan ozarbayjon tiliga o‘girganida asar ustida “tarjima qildi” yoki “tarjimon” degan iboralarni qo‘llamagan, balki buning o‘rniga “Chevirgani Xolid Said” iborasini ishlatgan. Biroq “Devonu lug‘otit turk” asari bilan bog‘liq yozishmalarida yoki maqolalarida u “chevirgani” o‘rniga “tarjima qilgan” iborasidan foydalangan. Bizningcha, bunday yondashuv muallifning til va tarjima masalasiga bo‘lgan ilmiy qarashlarini aks ettiradi hamda u o‘z nuqtai nazarida ma‘lum darajada haqli edi. Xolid Said Xo‘jayev tomonidan bizgacha yetib kelgan ilk tarjima asarlardan biri Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” nomli tarixiy romanidir. “O‘tgan kunlar” romani dastlab 1922-yildan boshlab O‘zbekistonda nashr etilgan “Inqilob” jurnalida qismlarga bo‘linib chop etilgan, 1925-yilda esa alohida kitob sifatida nashr qilingan. Asar nomidan ham ko‘rinib turibdiki, unda o‘tmish voqealari, o‘zbek xalqining tarixiy hayoti va o‘sha davrning murakkab ijtimoiy jarayonlari badiiy tasvirlangan. Asar muqaddimasida muallif yangi davr adabiyoti haqida fikr yuritar ekan, zamon o‘zgarishi bilan birga adabiyot ham yangilanishi zarurligini ta’kidlaydi. U o‘z romanini yangi davr romanchiligi bilan tanishish yo‘lidagi dastlabki tajriba sifatida baholaydi.

Muallifning fikricha, o‘tmishni bilish kelajakni anglashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli u asar syujetini tarixning nisbatan yaqin, ammo murakkab va ziddiyatli davrlaridan — xonliklar zamonidan olganini qayd etadi. Sovet davri mafkurasi sharoitida bunday tarixiy mavzular ko‘pincha o‘tmishdagi ijtimoiy tengsizlik va zulmni tasvirlash orqali talqin etilgan. Shu bois ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Xolid Said Xo‘jayevning mazkur asarni ozarbayjon tiliga yetkazishida sovet mafkuraviy siyosatining ham ma‘lum darajada ta’siri bo‘lgan.

Asarning ozarbayjon tilidagi nashriga yozilgan so‘zboshi ham bu holatni bilvosita tasdiqlaydi. Mazkur muqaddimada asarning o‘zbek xalqining ijtimoiy hayoti, turmush tarzi va tarixiy tajribasini aks ettirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlangan. Shuningdek, o‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi madaniy yaqinlikni mustahkamlash nuqtai nazaridan ham roman nashrining muhimligi qayd etilgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Xolid Said Xo‘jayev ushbu asarni ozarbayjon tiliga o‘girish jarayonida faqat tarjimon sifatida emas, balki adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham faoliyat yuritgan. U roman tahlilida muallif ayrim hollarda tarixiy shaxslar va voqealarni tasvirlashda ortiqcha tafsilotlarga berilib ketganini qayd etadi. Shu bilan birga, ayrim sahnalarning takroriy bayon qilinishi ham asarning kompozitsiyasiga ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlaydi. Tarjimon mazkur kamchiliklarni hisobga olib, asarni ozarbayjon tiliga moslashtirish jarayonida ayrim epizodlarni qisqartirgan hamda matnni badiiy jihatdan yanada silliq shaklga keltirishga harakat qilgan.

Demak, Xolid Said Xo‘jayev bu roman ustida ishlash jarayonida faqat tarjima bilan cheklanmay, uni ma‘lum darajada tahrir qilgan va badiiy mukammaligini oshirishga intilgan. Afsuski, keyinchalik ham Xolid Said Xo‘jayev, ham Abdulla Qodiriy siyosiy repressiyalar qurboni bo‘lganidan so‘ng, mazkur tarjima qayta nashr etilmagan va boshqa ko‘plab asarlar qatori sovet totalitar tizimi davrida unutilib ketgan. Xolid Said nafaqat mohir tarjimon, balki chuqur bilimga ega adabiyotshunos ham bo‘lgan. U romanning uslubini realist, ayrim o‘rinlarda esa naturalistik tasvir usullariga yaqin deb baholaydi va bu asar orqali realizm unsurlari o‘zbek adabiyotiga kirib kelganini ta’kidlaydi. Hatto u Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotidagi muhim islohotchi sifatida baholab, uni Mirzo Fatali Axundzoda bilan qiyoslaydi.

Umuman olganda, Xolid Said Xo‘jayev ilmiy, badiiy va tarjima faoliyatida ko‘plab

muhim yangiliklarga asos solgan olimlardan biri hisoblanadi. Masalan, Ozarbayjonda turk alifbosida chop etilgan ilk kitoblardan birining muallifi ham aynan u bo'lgan. Shuningdek, u turkiy xalqlar o'rtasida lotin alifbosini joriy etish harakati, bu jarayonning murakkabliklari hamda turli fikr qarama-qarshiliklarini ilmiy jihatdan batafsil yoritgan tadqiqotchilardan biridir. Bundan tashqari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hamda Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romani bilan ozarbayjon o'quvchisini tanishtirgan ilk tadqiqotchilardan biri ham aynan Xolid Said bo'lgan. Rashot Nuri Guntekinning "Choliqushi" romanini ozarbayjon o'quvchisiga yetkazish masalasiga munosabat bildirgan filologiya fanlari doktori Almaz Ulvi bu borada qiziqarli fikrlarni ilgari suradi. Uning ta'kidlashicha, Xolid Said go'yo Turkiyada tahsil olgan yillaridagi ma'naviy qarzdorlikni ado etgandek bo'lib, mashhur "Choliqushi" romanini ozarbayjon kitobxonlariga taqdim etish orqali bu vazifani amalga oshirgan.

Mazkur asar 1930-yilda "Azərnəşr" nashriyotida chop etilgan bo'lib, xuddi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida bo'lgani kabi, uning tahriri ham Hanafi Zeynalli tomonidan amalga oshirilgan. Har ikki asar nafaqat mazmunan jozibadorligi bilan, balki tarjimaning yuqori darajadagi badiiy va professional sifati bilan ham ajralib turadi. Tarjima matni shu qadar ravon va tabiiy ifodalanganki, uni asl nusxadan farqlash deyarli qiyin. Bu holat, avvalo, tarjimonning turk tafakkuri, uning ruhiy va madaniy nozikliklarini chuqur anglagani hamda turk madaniyatiga samimiy yaqinligi bilan izohlanadi.

"Devonu lug'otit turk" asarining tarjimasi haqida ozarbayjonlik olim A. Quliyev shunday yozadi: "SSSR Fanlar akademiyasi Ozarbayjon filialining maxsus ko'rsatmasi bilan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining tarjimasi unga topshirilgan edi. 1936-yil aprelda muallif 70–80 bosma taboq hajmida bo'ladigan bu lug'atning birinchi jildi tayyor bo'lganligi, qolgan jildlar ustida ish olib borayotgani haqida ma'lumot beradi. Xuddi shu yilda Akademiya "Asarlari"da (31-tom) Xolid Saidning tarjimachilik bilan bog'liq salmoqli bir maqolasi chop etiladi". Demak, bu fikrlardan bilish mumkinki, adib maxsus ko'rsatma asosida asarni tarjima qilgan.

1937-yil 1-iyunda Xolid Said Kabarda-Bolqor Viloyat Komitetiga Kulukov nomiga yozgan xatida "Devon" haqida ma'lumot beradi. Asar tarjimasi siyosiy xususiyatga ega ekanligini yuqoridagi fikrdan bilib olish mumkin.

XX asr boshlaridan boshlab "Devonu lug'otit turk" asariga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib, uni o'rganish va tarjima qilishga qaratilgan bir qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Mazkur asarning ilk nashri Rifat Kilisli tomonidan tayyorlangan bo'lib, ushbu nashrda asarning arab tilidagi matni berilgan, ammo turk tiliga tarjima qilinmagan edi. Shu bilan birga, Basim Atalay tomonidan asarni tarjima qilish ishlari Birinchi jahon urushi arafasida boshlanganligi va tarjima 22 daftar shaklida Turkiya Maorif vazirligiga taqdim etilgani haqida ma'lumotlar mavjud.

"Devonu lug'otit turk" asarining turkiy tillarga qilingan tarjimalari ichida B. Atalay tomonidan amalga oshirilgan va 1939–1941-yillarda nashr etilgan tarjima ilklardan biri sifatida e'tirof etiladi. Biroq asarni turkiy tilga birinchi bo'lib to'liq tarjima qilgan olim Xolid Said Xo'jayev hisoblanadi. U tomonidan 1935–1937-yillarda amalga oshirilgan mazkur tarjima ilmiy jihatdan yuqori baholangan bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida yetarlicha e'tirof etilmadi.

Xolid Said Xo'jayev tarjimasiga 1937-yilda Ignatiy Krachkovskiy va Sergey Malov kabi nufuzli sharqshunos olimlar tomonidan ijobiy taqriz berilib, uni nashrga tavsiya etilgan. Shuningdek, mazkur tarjima ustida tahrir ishlarini amalga oshirish uchun S. Malov va A. N. Kononov nomzodlari ko'rib chiqilgani haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Biroq 1937-yildagi siyosiy qatag'onlar natijasida tarjima nashr etilmay qolgan va uning muallifi ta'qibga uchrab, qatl etilgan.

Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu asardan dastlabki namunalar Abdurauf Fitrat tomonidan 1927–1928-yillarda chop etilgan bo'lib, bu holat "Devonu lug'otit turk"ni mahalliy ilmiy muhitga tanitishda muhim bosqich hisoblanadi. Biroq Fitrat va Xolid Said Xo'jayev

o'rtasidagi ilmiy va shaxsiy aloqalar hali to'liq o'rganilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Xolid Said "Devonu lug'otit turk" muqaddimasida Mahmud Qoshg'ariy asarining tuzilishi va maqsadini izohlab, unda turli janrlarga oid materiallar — hikmatli iboralar, saj', masallar, she'riy va nasriy parchalar alifbo tartibida tizimlashtirilganini ta'kidlaydi. Muallifning qayd etishicha, ushbu tartib kitobdan foydalanishni osonlashtirish, so'zlarning asl shakli va etimologiyasini ochib berish, murakkab shakllarni soddalashtirish hamda noaniq birliklarni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon esa uzoq yillik ilmiy izlanishlar natijasi sifatida baholanadi. Tarjimon Xolid Said asarning mazmuniy va shakliy xususiyatlariga sodiq qolgan holda, uni an'anaviy lug'at shaklida emas, balki yaxlit matn ko'rinishida ozarbayjon tiliga o'g'irgan. Shu bilan birga, u leksik birliklarni raqamlashtirib, har bir birlik uchun Kilisli nashridagi tegishli sahifa ko'rsatkichlarini ilova qilgan. Xolid Said muqaddima yozmagan, balki tarjimini bevosita asar matni bilan boshlagan. Jahondagi boshqa tarjimalardan farqli ravishda, faqat birinchi jildda lug'at birliklariga ozarbayjoncha tarjima bilan birga ruscha tarjima ham qo'shilgan. Bu holat, aniq ko'rinadiki, muharrirlar tashabbusi bilan amalga oshirilgan. Tarjima 1930-yillarda lotin yozuvida va XX asr boshlaridagi ozarbayjon adabiy tilida amalga oshirilgan. So'zlarning tarjimasidan keyin misollar keltirilgan. Bu misollar saj'li nasr, bayt, masal, so'z birikmalari va gaplar shaklida bo'lib, arab va lotin yozuvida berilgan. Ba'zi so'zlarning izohida arab tilidagi misollar bilan qiyoslashlar keltirilgan, hadislar, Qur'on, arab she'riyati va masallaridan iqtiboslar olingan. Har bir faslda so'zlar originaldagidek harflarga ko'ra ajratilgan (b, t, ch va boshqalar). Fasllar orasida va oxirida grammatik qoidalar berilgan.

Har bir lug'at birligining tuzilishi quyidagicha:

- so'zning arab yozuvida berilishi;
- talaffuzi;
- ozarbayjoncha tarjimasi (I jildda ruscha tarjimasi ham);
- misollar.

Masalan:

Iqilaç — "yaxshi va chaqqon ot". Bu so'z "احيلىق" shaklida kelgan. Rus tilida esa "резвый рысак". Masalda: qahramonga shafqatsiz bo'lmang va uni zaiflashtirmang. Yaxshi parvarishlangan va zotdor otga shafqatsiz bo'lmang. Shunday deb beklarga nasihat qilinadi. Demishlarki:

اريلاجاق م بلى ك دى

Iqilaçım erik boldi.

ار بلى ك كرى ير غو دى

Erig bolğu yeri kördi.

اوبل اروت كوك وب تل دى

Bulut örüb kök örtüldi.

تم تورون يغ تلى ب دى

Tuman törüp toli yağdı.

Ma'nosi: mening yaxshi yurgan otim bunga loyiq deb bilgani uchun chopib bordi. Shuning uchun bulutlar ko'tarildi, tuman uni qopladi va do'l yog'di.

Ma'lumki, arab tilining leksik bazasi juda boy va so'zlarining aksariyati ko'p ma'nolidir. Shu jihatdan olib qaraganda, matn mazmuniga mos keladigan ma'noni topib ishlatish mahorat talab qiladi. Masalan, tarjimaga aloqador bir nechta misollarga diqqat qilaylik:

اج ار الش اب دى

Er açıb ülşedi.

(الر اسمجاع حتي دجل رطر يغ ان كاد فه الج شده من عليه عشى و)

Bu matnning tarjimasini Xolid Said shunday yozgan: "Odamning ko'zlari ochlikdan qorayib ketdi". Bu jumla arabcha matnning birinchi qismiga tegishli bo'lib, ikkinchi qismi ("u ochlikdan deyarli hushidan ketib qoldi") tugallanmagan. Muharrirlar tuzatishlar kiritish orqali tarjimini quyidagicha yaxshilaganlar: "Odamning ko'zlari ochlikdan qorayib ketdi, u ochlikdan

deyarli hushidan ketib qoldi”.

Muharrirning tuzatishi: bahorda qoramollarning holati yaxshilanadi va ular semiradi, shuning uchun janoblar semiz otlarni minish uchun topishadi; otlilar bahor kelgandan xursand bo‘lishadi va quvonchlaridan bir-birlarini tishlashadi. Arabcha matn bilan taqqoslaganda, muharrir satrni tarjima qilgani aniq ko‘rinadi.

Biroq, ba’zi hollarda muharrirlarning eslatmalarini e’tiborsiz qoldirish mumkin. Masalan, grammatik tushuntirishlarni o‘z ichiga olgan bo‘limlardan birida quyidagi jumla mavjud:

منه الاقيسته ساير ج فالخير

Bu gapdagi fe’l arab tilida grammatik jihatdan “olib tashlanishi kerak” degan ma’noni anglatadi. Biroq “olib tashlanishi mumkin” kabi tarjimalar ham to‘g‘ri deb hisoblanadi.

Xolid Said tarjimasi:

Bu misollardan boshqalarini yaratish uchun foydalanish mumkin.

Tahrirlovchi eslatadi:

Bundan tashqari, qoidalarga o‘zgartirishlar kiritilishi kerak.

Tarjima to‘g‘ri bo‘lsa-da, muharrirlar tomonidan mazmun o‘quvchiga yanada tushunarli tarzda yetkazilgan. “Devon”da shunga o‘xshash yuzlab misollar mavjud. Masalan:

اتلنور يزین يلقى

Yılqı yazın atlanur,

اتلنور انن اوتلب

Otlap anın etlenür.

اتلنور سمز بکلر

Begler semüz atlanur,

شور اسر اکر سئنب

Sevinüp ögür ısırsur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Almaz Ü. O‘zbek adabiyoti (adabiy portretlar, tadqiqotlar, suhbatlar, qaydlar). — Boku: Elm va ta’lim, 2016. — B. 41.
2. Bünyadov Z. Xolid Said Xo‘jayev. Tergov ishi №12493 // Ozarbayjon muallimi gazetasi. — 1990. — 10-yanvar. — B. 1.
3. Xo‘jayev X. S. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari haqida.
4. Güntekin R. N. Choliqushi. — Boku, 1929.
5. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. — Boku, 1928.